

3. Н.Г.Кондратьюк, А.В.Бурмистрова-Савенкова, В.И.Моросанова. Шкала карьерноадаптационных способностей М. Савикаса и Э. Порфели: психометрические характеристики русскоязычной версии на выборке подростков Вестник РУДН. Серия: Психология и педагогика. 2021 г. 558-стр.

4. Avazbayev.A.I., Xudayberganova.M.E. Kasbiy kompetentlik umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini yangi sifatga ko'tarish omili. Xalq ta'limi. Ilmiy-metodik jurnal. 6-son 2020 yil. 24-29 betlar.

TA'LIM JARAYONIDA ELEKTRON DARSLIK LARNING O'RNI

S.SH.Jo'ramurodova-Nizomiy nomidagi

TDPU ATT yo'nalishi talabasi

P.D.O'rolova-Nizomiy nomidagi TDPU

ATT yo'nalishi talabasi

Zamon rivojlanishi natijasida kundalik hayotimizga turli xil innovatsion texnologiyalar va gadjetlar kirib keldi. Ular yildan-yilga mukammallashib bormoqda va inson hayoti mazmuniga aylanib qolganligi, ularsiz bir kunini ham tasavvur qila olmaydiganlarning mavjudligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish o'qitish sifatini oshirishga, qiziqarli, rang-barang qilishini bilamiz Shu o'rinda, elektron darsliklarga to'xtalib, ularning yutuq va kamchiliklarini ko'rib chiqaylik. Elektron darsliklar maxsus qurilma yoki dasturiy ta'minot bo'lib, ta'lim jarayonida an'anaviy qog'oz kitob o'rnini bosadi. Bugungi kunga kelib elektron kitob tushunchasiga turlicha ta'riflar mavjud. Ayrim manbalarda ular an'anaviy qog'oz kitoblarning elektron ko'rinishi deyilsa, boshqalarda matnlardan tashqari, o'quvchilarga taqdim qilish uchun ta'limiy multimediyalar materiallariga hamda markaziy manba tomonidan yangilanib turuvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv blokka ega elektron qurilmalardagi murakkab dasturlar yig'indisi deya ta'riflanadi.

Elektron darsliklarni yaratishda imkoni boricha uning zarur qismlarini printer orqali chop etish va o'quvchilar hohlagan paytda uni o'qish imkoniyati ham

bo'lishini nazarda tutish kerak. Chunki matnni ekrandan ko'p o'qish o'quvchilar ko'ziga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Yaxshi elektron darslik ma'ruza mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlashda ta'lim oluvchi vosita, kompyuterda laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida yordamchi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy mashg'ulotlar uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchi bo'la oladi deb ayta olish mumkin.

Elektron darsliklarning so'nggi nashrlari ustida qayta ishlash jarayonlari olib borilayotganligi sababli zamonaviy elektron darsliklar asosan tasvirli matnlardan iborat. Elektron darsliklarning maqsadi an'anaviy qog'oz kitoblar o'rnini bosish emas, balki keng imkoniyatga ega ta'lim quroliga aylantirish. Bu darsliklarning asosiy ustunligi – interaktivligida. Elektron darsliklar bilan ishlovchi qurilma texnologiyasi matnlardan tashqari o'quvchilarga audiofayllar, videoroliklar, turli hujjatlar nusxasi, ensiklopediya va boshqa manbalardagi ma'lumotlarni ochish imkonini beradi. Bulardan tashqari, ularning ixchamligi, bir qurilma bir nechta kitobni o'z ichiga olishi, internetga ulanish imkoni bo'lganda istalgan ma'lumotni tortib olish imkoniyati, qog'ozga allergiyasi bo'lgan kishilarning foydalanishi uchun qulayligini sanab o'tish mumkin.

Shu o'rinda, elektron darsliklarning o'ziga yarasha kamchilik va noqulayliklari mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish kerak.

Bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- bunday elektron qurilmaning yangi modellari juda qimmat turadi;
- an'anaviy qog'oz kitoblardan ko'ra tashqi ta'sirga chidamsizligi;
- elektron darslik qurilmalarining akkumulyatorini muntazam zaryadlab turish lozim.

Yaxshi elektron darslik yaratishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

Elektron darslik ishlab chiqishda uchta asosiy komponentga e'tibor qaratish lozim. Bular: o'quv materialni bayon etish, amaliy mashg'ulotlar bajarish va teskari aloqa (o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash jarayoni). Elektron darslik to'laligicha bir faylda bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

Har bir bob alohida hujjat sifatida tayyorlanishi kerak, bu narsa darslikni kompyuterga yuklashdagi tezlikni kamayishi va materialni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga barham beradi.

Ta'lim muassasalarida elektron darsliklardan foydalanish orqali o'quv-tarbiya jarayoni jadallashadi.

O'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bir maqsadga yo'naltirilganlik ko'rsatgichini oshirish;
- o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- o'quv mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o'quvchilarning o'quv amaliy darajasini tezlashtirish.

Hozirgi kunda yaratilgan va yaratilayotgan elektron o'quv adabiyotlar soni uncha katta emas. Ushbu ishni jadallik bilan amalga oshirish va ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga joriy etish hozirgi kunda zaruratga aylangan. Qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun respublikadagi salohiyatli va tajribali o'qituvchi, uslubchi, olim va tizimli dasturchilarni birlashtirib maxsus elektron darslik yaratuvchi guruhlar, imkoniyatdan kelib chiqqan holda hatto markazlar tashkil etilmoqda. Bu bilan mustaqil O'zbekistonimiz kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodni yangi axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'qitib, bilimli, mustaqil fikrlaydigan va rivojlangan chet davlatlarining yoshlari bilan raqobatdosh kadrlar tayyorlashga zamin yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytib o'tish joizki, so'nggi 2 yil ichida respublikada elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o'qitishni tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Elektron adabiyotlar yaratishning ilmiy-uslubiy tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Shunday ekan, tez orada ta'lim tizimida elektron darsliklardan foydalanish oddiy darsliklar kabi kundalik ehtiyoj bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Saydivosilov, S. (2022). Training of qualified specialists in the conditions of digitalization of education. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).

2. Абдурахманова, Ш. А., & Хасанов, А. А. (2019). Применение wiki-технологий в образовании. *профессионально-педагогическая культура учителя и преподавателя: содержание, модели и технологии образовательной деятельности*, 95.

3. Elmurzaevich, Mamarajabov O. "Cloud Technology to Ensure the Protection of Fundamental Methods and Use of Information." *International Journal on Integrated Education*, vol. 3, no. 10, 2020, pp. 313-315, doi:10.31149/ijie.v3i10.780.

4. Mamarajabov Odil Elmurzaevich. (2022). Formation of students' competence in the use of cloud technologies in the information educational environment. *World Bulletin of Social Sciences*, 8, 79-80.

5. Muratov Elvin Ilich. (2022). Problems of choosing innovative strategies for the educational process based on empirical methods. *World Bulletin of Social Sciences*, 8, 101-103. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/732>

6. Ilich, M. E. (2022, February). Problems of professional development of future teachers in the field of informatics. In *Conference Zone* (pp. 193-194).

7. Bagbekova, L. (2019). Opportunities of massive open online courses. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).

8. Kadirbergenovna, B. L. (2019). The importance of independent education in education system. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, (5).

9. Хасанов, А. А., & Ўроқова, Ш. Б. Қ. (2021). Цифровизация образования на современном этапе развития информатизированного общества. *Scientific progress*, 2(1), 300-308.

10. Qizi, U. S. B. (2021). Digitization Of Education At The Present Stage Of Modern Development Of Information Society. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 95-103.

11. Bakiyeva, ZR (2023 yil, may). ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA TALABALARGA KOMPYUTER ANIMATSIYASINI O'QITISHNING NAZARIY PRINSIPLARI. *Zamonaviy fan va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha xalqaro konferensiya materiallarida* (2-jild, 5-son, 5-8-betlar).

12. Rahmatullaevna, BZ (2020). Kompyuter animatsiyasini xalqaro miqyosda tayyorlash tahlili va uni O'zbekistonda qo'llash. *Ta'lim fanlari bo'yicha Yevropa tadqiqot va mulohaza jurnali, Vol , 8* (8).

13. Бакиева, З. Р. (2014). Дистанционное обучение в системе непрерывного профессионального образования республики Узбекистан. In *Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации* (pp. 174-176).

CHIZMACHILIK FANINI O'ZLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI SALBIY OMILLAR

(umumiy o'rta ta'lim maktab chizmachiligi misolida)

*M.O'rinboyeva – Nizomiy nomidagi
TDPU Muhandislik va dizayn nazariyasi
magistratura mutaxassisligi 1- bosqich
magistranti*

*M.Xalimov – Nizomiy nomidagi TDPU
dotsenti*

Ma'lumki zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat bilim, ko'nikma va malakalarni shakillantirish, faoliyatni nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi